



**TURLI DARAJADAGI ESHITISH NUQSONIGA EGA BO'LGAN BOLALARDA
NUTQ RIVOJLANISHINING BOSQICHLARI VA UNING RIVOJLANISH
TENDENSIYALARINI TAQQOSLASH**

Abdulxodiyeva Muhayyoxon Shokirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti Surdopedagogika yo'nalishi 3-bosqich talabasi

E-mail: abdulxodiyevamuhayyo6@gmail.com

Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti Inklyuziv ta'lim kafedra o'qituvchisi

E-mail: akramovdostonbek28121998@gmail.com

ANNOTATSIYA. *Mazkur tadqiqotda o'rta va og'ir darajadagi eshitish nuqsoniga ega bolalarda eshitish apparatining nutq rivojlanishiga ta'siri o'rganildi. Tadqiqotning maqsadi eshitish apparatidan foydalanish jarayonida bolalarning fonematik eshituv, lug'at boyligi, grammatik tuzilma va talaffuz rivojlanishidagi o'zgarishlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda kuzatish, pedagogik tahlil, taqqoslash hamda ilmiy adabiyotlarni o'rganish metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, eshitish apparatini erta qo'llash, surdopedagogik va logopedik mashg'ulotlarning tizimli tashkil etilishi hamda oila bilan hamkorlik nutq rivojlanishini sezilarli darajada yaxshilaydi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, o'rta va og'ir darajadagi eshitish nuqsoniga ega bolalarda eshitish apparatidan samarali foydalanish nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashning muhim omili sifatida asoslab berildi.*

Kalit so'zlar. *Eshitish nuqsoni, nutq rivoji, surdopedagogika, bolalar, eshitish apparati, fonematik idrok, lug'at boyligi, grammatik tuzilma, kompensatsiya, ijtimoiylashuv, korreksiya*

АННОТАЦИЯ. *В данном исследовании изучается влияние слуховых аппаратов на развитие речи у детей со средней и тяжёлой степенью нарушения слуха. Цель исследования – определить особенности формирования фонематического слуха, словарного запаса, грамматического строя и произношения у детей, использующих слуховые аппараты. В работе использованы методы наблюдения, педагогического анализа, сравнительного анализа и изучения научной литературы. Результаты исследования показали, что раннее использование слуховых аппаратов, систематические занятия сурдопедагога и логопеда, а также активное участие семьи способствуют значительному улучшению речевого развития детей. Научная новизна исследования заключается в обосновании эффективности комплексного подхода к развитию речи у детей со средней и тяжёлой степенью нарушения слуха с использованием слуховых аппаратов.*

Ключевые слова. *Нарушение слуха, развитие речи, сурдопедагогика, дети, слуховой аппарат, фонематическое восприятие, словарный запас, грамматика, компенсация, социализация, коррекция*



ABSTRACT. *This study examines the impact of hearing aids on speech development in children with moderate and severe hearing impairments. The aim of the research is to identify the characteristics of phonemic hearing, vocabulary development, grammatical structure, and pronunciation in children using hearing aids. The research methods include observation, pedagogical analysis, comparative analysis, and the study of scientific literature. The results show that early use of hearing aids, systematic sessions with a surdopedagogue and speech therapist, and active family involvement significantly improve children's speech development. The scientific novelty of the research lies in substantiating the effectiveness of a comprehensive approach to speech development in children with moderate and severe hearing impairments using hearing aids.*

Keywords. *Hearing impairment, speech development, surdopedagogy, children, hearing aid, phonemic perception, vocabulary, grammar, compensation, socialization, correction*

Bola hayotining ilk yillarida atrofdagi nutq tovushlarini eshitish orqali fonematik tizimni shakllantiradi, soʻz boyligini egallaydi, grammatik tuzilmalarni oʻrganadi. Eshitish nuqsoniga ega boʻlgan bolalarda bu jarayon tabiiy ravishda kechmaydi, chunki maxsus pedagogik yondashuvni talab etadi. Zamonaviy surdopedagogika eshitish apparatlari yordamida tovush signallarini kuchaytirib berish orqali nutq rivojini qoʻllab-quvvatlash imkoniyatiga ega. Shu sababli oʻrta va ogʻir darajadagi eshitish nuqsoniga ega boʻlgan bolalarda eshitish apparatining samaradorligini oʻrganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi. Eshitish nuqsoni turli darajalarda boʻlishi mumkin. Oʻrta darajadagi nuqson odatda 40–55 dB oraligʻida boʻlib, bolaning balandroq nutqni idrok qilishi, lekin past ovozlarning nozik farqlarini eshitishda qiynalishi kuzatiladi. Ogʻir darajada esa 70–90 dB gacha eshitish yoʻqotilishi kuzatilib, oddiy muloqot nutqini deyarli eshitmaslik holati ustunlik qiladi.

Bola hayotining dastlabki yillarida nutqning shakllanishi eshitish faoliyati bilan uzviy bogʻliq boʻlib, u bosqichma-bosqich rivojlanadi. Sogʻlom bolalar atrofdagi nutq tovushlarini eshitish orqali fonematik tizimni egallaydi, soʻz boyligini oshiradi hamda grammatik tuzilmalarni asta-sekin oʻzlashtiradi. Eshitish nuqsoniga ega boʻlgan bolalarda esa ushbu jarayon tabiiy ravishda kechmaydi, chunki eshitish orqali qabul qilinadigan axborot yetarli darajada boʻlmaydi. Shu sababli bunday bolalar maxsus pedagogik yordam va reabilitatsion yondashuvga muhtoj boʻladilar. Nutq rivojlanishining ilk bosqichlaridan biri gugulash davridir. Sogʻlom bolalarda 2–3 oylikda turli unli tovushlarga oʻxshash ovozlarning paydo boʻlib, bola oʻz ovozigacha javob qaytarishni boshlaydi. Eshitish nuqsoniga ega boʻlgan bolalarda esa gugulash bosqichi koʻpincha sust namoyon boʻladi yoki qisqa muddatda yoʻqolib ketadi. Bunga bolaning oʻz ovozin yetarli darajada eshita olmasligi sabab boʻladi. Keyingi bosqich chugʻurlash davri boʻlib, odatda 5–7 oylikda kuzatiladi. Bu davrda sogʻlom bolalar boʻgʻinli tovushlarni takrorlay boshlaydi. Oʻrta darajadagi eshitish nuqsoniga ega bolalarda chugʻurlash kechroq paydo boʻladi va tovushlar cheklangan boʻladi. Ogʻir darajadagi eshitish nuqsonida esa bu bosqich ancha sust kechadi yoki umuman shakllanmasligi mumkin. Birinchi soʻzlarning paydo boʻlish muddati ham sezilarli farq qiladi. Sogʻlom bolalarda bu holat



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



taxminan 10–12 oylikda kuzatilsa, eshitish nuqsoniga ega bolalarda, ayniqsa apparat kech taqilgan holatlarda, birinchi so‘zlar ancha kech shakllanadi. Eshitish apparatidan erta foydalangan bolalarda esa bu kechikish nisbatan kamayadi.

Fonematik eshituvning shakllanishi eshitish nuqsoniga ega bolalar uchun eng murakkab jarayonlardan biridir. Nutq tovushlarini aniq farqlay olmaslik, ayniqsa undosh tovushlarda xatolarning ko‘p uchrashi, shovqinli muhitda nutqni tushunishdagi qiyinchiliklar fonematik eshituvning yetarli darajada rivojlanmaganidan dalolat beradi. Bu holat sog‘lom bolalarda deyarli kuzatilmaydi. Lug‘at boyligi va grammatik tizimning rivojlanishida ham sezilarli tafovutlar mavjud. Eshitish nuqsoniga ega bolalarda so‘z boyligi sekin kengayadi, so‘zlarni umumlashtirish va mavhum tushunchalarni o‘zlashtirish qiyin kechadi. Gap qurishda qo‘shimchalar, kelishik va zamon shakllarida ko‘plab xatolar uchraydi. Murakkab gap tuzilmalariga o‘tish kechikadi va bu yozma nutqda ham aks etadi. Talaffuzda esa lab tovushlari nisbatan oson o‘zlashtirilsa-da, shovqinli va sirg‘aluvchi tovushlar katta qiyinchilik tug‘diradi. Nutq tempi notekisligi, bo‘g‘inlarni tushirib qoldirish va intonatsion yetishmovchiliklar tez-tez uchraydi. Muammolarning oldini olishda eshitish nuqsonini erta aniqlash va erta reabilitatsiya tamoyili muhim ahamiyatga ega. Bola hayotining ilk oylaridayoq eshitish skriningidan o‘tkazilishi, nuqson aniqlangan taqdirda esa imkon qadar erta eshitish apparati taqilishi va maxsus mashg‘ulotlar boshlanishi zarur. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, eshitish nuqsonini erta reabilitatsiya asosida erta yordam olgan bolalarda nutq rivoji sog‘lom tengdoshlariga yaqinlashadi.

Eshitish apparatidan foydalanuvchi o‘rta va og‘ir darajadagi eshitish nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarda nutq rivojlanishi sog‘lom bolalarga nisbatan sekin kechadi. Biroq erta tashxis, to‘g‘ri tanlangan va sozlangan eshitish apparati, surdopedagog va logoped mashg‘ulotlarining izchil olib borilishi hamda oilaning faol ishtiroki natijasida ushbu farqlarni sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Tovushlarni eshitish va idrok qilishda bola turli tovushlarni farqlashni, ularning baland-pastligini va davomiyligini anglay boshlaydi. O‘rta darajadagi nuqsonga ega bolalarda bu bosqich tezroq kechsa, og‘ir darajada eshitish apparatiga moslashish va tovushlarni ajratish ko‘proq vaqt talab etadi. Fonematik eshituv – nutq tovushlarini ma’noli birlik sifatida anglash qobiliyatidir. Eshitish apparatidan foydalanuvchi bolalarda aynan shu jarayon eng murakkab jarayondir. Undosh tovushlarni farqlash, shovqinli muhitda nutqni tushunishdagi qiyinchiliklar fonematik eshituvning yetarli shakllanmaganidan dalolat beradi. Lug‘at boyligi zahirasi ko‘pincha sust. So‘zlarni umumlashtirish, ko‘p ma’noli so‘zlarni tushunish, mavhum tushunchalarni o‘zlashtirish jarayoni sekin. O‘rta darajadagi nuqsonga ega bolalarda erta apparat taqish lug‘at boyligini sezilarli darajada oshiradi. Gap qurish, qo‘shimchalar, kelishik va zamon shakllari ustida xatolar tez-tez uchraydi. Sodda gaplardan murakkab gaplarga o‘tish kechikadi. Grammatik tizimning yetarli shakllanmasligi yozma nutqda ham aks etadi. Lab tovushlari nisbatan oson, shovqinli, sirg‘aluvchi tovushlar esa qiyin o‘zlashtiriladi. Bo‘g‘in tushirib qoldirish, nutqning notekis tempi, intonatsion yetishmovchiliklar kuzatiladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



R.M. Boskis surdopsixologiya sohasidagi tadqiqotlarida eshitish nuqsoni daraja si bilan nutq rivojlanish darajasi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Uning ta'kidlashicha, o'rta darajadagi eshitish nuqsoniga ega bolalarda eshitish apparati yordamida og'zaki nutqni shakllantirish imkoniyati ancha yuqori bo'ladi. Og'ir darajadagi nuqsonda esa nutqning shakllanishi sekinlashadi, fonematik eshituv va talaffuz ustida uzoq muddatli korreksion ish talab etiladi. Z.I. Baranova va L.P. Noskova tadqiqotlarida eshitish apparatidan foydalanuvchi bolalarda fonematik eshituvni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Ularning fikriga ko'ra, tovushlarni farqlash, ayniqsa undosh tovushlar ustida ishlash nutq rivojlanishining eng murakkab bosqichlaridan biridir. Shuning uchun logopedik mashg'ulotlar eshitish mashqlari, labdan o'qish va vizual tayanchlar bilan uyg'un holda olib borilishi lozim. Mahalliy va mintaqaviy tadqiqotchilar ishlarida ham eshitish apparati bilan ishlashning samaradorligi alohida ta'kidlanadi. O'zbek surdopedagoglari bolada nutq rivojlanishining muvaffaqiyati ko'p jihatdan oila muhitiga bog'liq ekanini qayd etadilar. Ota-onaning faol ishtiroki, uy sharoitida nutqiy mashqlarni davom ettirish, bola bilan doimiy muloqot qilish nutq rivojini sezilarli darajada tezlashtiradi.

Eshitish apparatidan foydalanuvchi o'rta va og'ir darajadagi eshitish nuqsoniga ega bolalarda nutq rivojlanishi ko'plab qiyinchiliklar bilan kechadi. Bunday bolalarda nutqning kech paydo bo'lishi, so'zlarning to'liq shakllanmasligi, gaplarni grammatik jihatdan noto'g'ri qurish, talaffuzdagi buzilishlar, shuningdek, muloqotdan chetlashish holatlari tez-tez uchraydi. Nutq tovushlarini aniq farqlay olmaslik sababli bola ayrim tovushlarni tushirib qoldiradi, o'rnini almashtiradi yoki buzib talaffuz qiladi. Bu holat nafaqat og'zaki nutqda, balki o'qish va yozuv ko'nikmalarining shakllanishida ham o'z aksini topadi. O'qish jarayonida matnni tushunish, savollarga javob berish, tengdoshlar bilan muloqotga kirishish qiyinlashadi. Bu esa bolaning o'quv motivatsiyasining pasayishiga olib kelishi mumkin. O'z fikrini erkin ifoda eta olmaslik bolaning psixologik holatiga ham salbiy ta'sir qiladi: bola tortinchoq, ishonchsiz, o'zini tengdoshlaridan pastroq deb his qilishi mumkin. Natijada ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar kuchayadi, jamoaga kirisha olmaslik, yolg'izlikka intilish, muloqotni cheklash kabi holatlar kuzatiladi. Og'ir darajadagi eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda nutq rivojlanish bosqichlari sekinlashgan bo'ladi. Ular tovushlarni farqlashda, so'zlarning ma'nosini tushunishda, murakkab gap tuzilmalari bilan ishlashda ko'proq qiynaladilar. O'rta darajadagi nuqsoni bo'lgan bolalarda natijalar yaxshiroq bo'lishi mumkin, ammo ular ham to'liq sog'lom tengdoshlariga nisbatan orqada qolishi kuzatiladi.

Ushbu muammolarning yuzaga kelishiga bir qator sabablar ta'sir ko'rsatadi. Bunda asosiy sabab — eshitishning yetarli darajada shakllanmaganligidir. Eshitish apparati tovushlarni kuchaytiradi, biroq tovushni tabiiy holatda yetkazib bera olmaydi. Natijada ba'zi tovushlar buzilgan, noaniq yoki yetarlicha kuchsiz eshitiladi. Shu sababli bola nutq tovushlarini to'liq farqlay olmaydi va ularning talaffuzini to'g'ri shakllantira olmaydi. Ikkinchi sabab — apparatdan kech foydalanishni boshlashdir. Bola hayotining ilk uch yili nutq va eshitish rivoji uchun eng muhim davr hisoblanadi. Agar eshitish apparati kech taqilsa yoki uzoq vaqt umuman ishlatilmasa, bola ushbu davrni boy berishi mumkin. Erta yoshda



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



eshitish signallari yetarli bo‘lmasa, miya nutq tovushlarini to‘liq qayta ishlash mexanizmini shakllantira olmaydi. Yana bir sabab esa apparatning noto‘g‘ri tanlanishi yoki sozlanishidir. Har bir bola uchun apparatning turi, kuchaytirish darajasi va sozlash parametrlari individual ravishda tanlanishi zarur. Aks holda, hatto apparatdan foydalangan holda ham bola tovushlarni buzilgan holda eshitadi. Surdopedagog va logoped mashg‘ulotlarining yetarli bo‘lmasligi, darslarning tizimli tashkil qilinmasligi, mashg‘ulotlar faqat maktab yoki bog‘chada cheklanishi natijalarga salbiy ta‘sir qiladi. Oila muhitida muloqotning kamligi, bolaning telefon yoki televizor qarshisida ko‘p vaqt o‘tkazilishi, kattalarning bola bilan yetarlicha suhbat qilmasligi ham nutq rivojini sekinlashtiradi. Shuningdek, eshitish nuqsonining darajasi ham muhim omildir. Og‘ir darajadagi eshitish yo‘qotilishi bo‘lgan bolalarda nutqning shakllanishi ko‘proq vaqt va kuch talab etadi. Ularning fonematik eshituvini, talaffuzini, lug‘at boyligini rivojlantirish uchun uzoq muddatli rehabilitatsiya zarur.

Muammoni hal etish uchun kompleks va izchil yondashuv talab etiladi. Avvalo, erta tashxis qo‘yish va erta rehabilitatsiyani boshlash zarur. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning eshitish skriningi, muntazam audiologik tekshiruvlar, shubha tug‘ilganda zudlik bilan mutaxassisga murojaat qilish juda muhimdir. Eshitish nuqsoni aniqlangan bola uchun mos eshitish apparati tanlanib, uni to‘g‘ri sozlash zarur. Keyingi muhim yo‘nalish — surdopedagogik va logopedik mashg‘ulotlarni tizimli tashkil etishdir. Mashg‘ulotlar fonematik eshituvni rivojlantirish, tovushlarni farqlash, to‘g‘ri talaffuzni shakllantirish, lug‘at boyligini kengaytirish va grammatik tuzilmani o‘rgatishga qaratilishi kerak. Mashg‘ulotlar muntazam, reja asosida va bola yoshiga mos tarzda olib borilishi lozim. Ota-onalar bilan hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Ularga maxsus ko‘rsatmalar berish, uy sharoitida bajariladigan mashqlarni o‘rgatish, bolaning nutqiy muhitini boyitish bo‘yicha maslahatlar berish zarur. Bola bilan ko‘proq suhbatlashish, savol-javob qilish, rasmlar asosida hikoya tuzdirish, kundalik hayotdagi buyumlar nomini aytish va takrorlash nutq rivojini tezlashtiradi. Ta‘lim muassasalarida ham qulay sharoit yaratish, inkluziv ta‘lim muhitini yo‘lga qo‘yish orqali bolalarning ijtimoiy va nutqiy rivojlanishini samarali qo‘llab-quvvatlash, sinfdagi shovqinni kamaytirish, eshitish apparati bilan ishlashni hisobga olgan holda metodik yondashuvlarni qo‘llash katta samara beradi. Mutaxassislar – audiolog, surdopedagog, logoped, psixolog va o‘qituvchilarning hamkorlikdagi ishlashi bolaning umumiy rivojlanishini ta‘minlaydi.

O‘rta va og‘ir darajadagi eshitish nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarda nutq rivojlanishi tabiiy ravishda kechmaydi va bu jarayon ko‘plab omillarga bog‘liq holda shakllanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, eshitish apparatidan foydalanish bolalarning tovushlarni eshitishi va nutqni idrok etish imkoniyatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Biroq apparatning o‘zi yetarli bo‘lib qolmaydi, balki u bilan birga surdopedagogik va logopedik mashg‘ulotlarning muntazam olib borilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, eshitish apparatini imkon qadar erta yoshdan taqish nutq rivojlanishida muhim rol o‘ynashi kuzatildi. Erta tashxis va rehabilitatsiya bolalarning fonematik eshituvini rivojlantirish, lug‘at boyligini oshirish hamda grammatik tuzilmani o‘zlashtirish jarayonini tezlashtiradi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Aksincha, apparatdan kech foydalanish yoki mashg'ulotlarning yetarli darajada olib borilmasligi nutq rivojlanishidagi kechikishlarni yanada kuchaytirishi mumkin. Bundan tashqari, bola nutqining shakllanishida oila muhitining ham ahamiyati katta. Ota-onalarning bola bilan ko'proq muloqot qilishi, kundalik hayot jarayonida nutqiy faoliyatni rag'batlantirishi hamda mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlashi ijobiy natijalarni tezroq ko'rsatadi. Ta'lim muassasalarida qulay pedagogik muhit yaratish, individual yondashuvni qo'llash va mutaxassislarning hamkorlikdagi faoliyati esa bolaning nutqiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. O'rta va og'ir darajadagi eshitish nuqsoniga ega bolalarda eshitish apparatidan to'g'ri foydalanish, erta reabilitatsiya, tizimli pedagogik yordam hamda oila bilan uzviy hamkorlik nutq rivojlanishidagi qiyinchiliklarni kamaytirish va bolalarning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva N.A. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2016
2. Nazarova D.A., Mamarajabova Z.N. — Surdopedagogika. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2019.
3. Po'latova P.M., Nurmuxamedova L., Amirsaidova Sh. — Maxsus pedagogika. Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.
4. Boskis R.M. — Surdopedagogika asoslari. Moskva: Prosveshcheniye, 1988.
5. Rahmanova V.S. — Maxsus pedagogika (mutaxassislikka kirish). Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2005
6. Shomahmudova M.X. Maxsus pedagogika (surdopedagogika asoslari). — Toshkent: O'qituvchi, 2012.
7. Baranova Z.I. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda fonematik eshituvni rivojlantirish. — Moskva: Pedagogika, 1990.
8. Boskis R.M. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasi. — Moskva: Prosveshcheniye, 1971.
9. Mirzaaxmedova M.M. Maxsus pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
10. Qodirova F.Q. Eshitish nuqsoniga ega bolalar ta'limi. – Toshkent: Sharq, 2021.

